

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UDK 371(236)

XX ASRNING 40-80 YILLARIDA MAKTAB O‘QITUVCHILARINING MALAKA OSHIRISH MASALALARI

N.A.Sharipova

TDTU Qo‘qon filiali dotsenti, PhD

nar.kokand@gmail.com 91-141-13-03

ORCID 0009-0001-9731-9629

Annotatsiya Har bir davlatning yosh avlodga ta’lim berish, ularni kelajak hayotiga tayyorlashda o‘qituvchilarning o‘rni beqiyos. Shuning uchun, o‘qituvchilarning malaka oshirish jarayoni va uning ahamiyati davlat va jamiyat darajasida e’tiborlidir. Malaka oshirish, shubhasiz, o‘qituvchining o‘z fanini yaxshi bilishini, ularning axborot va pedagogik texnologiyalarning yangi yo‘nalishlarini o‘zlashtirishini va o‘qituvchilar bilan ishlashda yangi strategiyalarni qo‘llashni taqozo qiladi. Tezisdan sovet hokimiyati yillarida maktab o‘qituvchilarini malaka oshirish masalalari va muammolariga urg‘u berilgan

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, malaka oshirish, institut, kurslar, rag‘bat, maorif, tizim, seminar, markaz.

ПРОБЛЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ШКОЛЬНЫХ УЧИТЕЛЕЙ В 40-80-Е ГОДЫ XX ВЕКА

Роль учителей в обучении молодого поколения каждого государства, подготовке их к будущей жизни несравнима ни с чем. Поэтому процесс профессионального развития учителей и его важность заслуживают внимания на государственном и общественном уровнях. Повышение квалификации, несомненно, предполагает, что учитель хорошо разбирается в своих предметах, что он осваивает новые области информационных и педагогических технологий, а также что при работе с учащимися используются новые стратегии. В статье особое внимание уделялось вопросам и задачам профессионального развития школьных учителей в годы советской власти

Ключевые слова: Преподаватель, повышение квалификации, институт, курсы, расширение, образовательная система, семинар, центр.

PROBLEMS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF SCHOOL TEACHERS IN THE 40-80-IES OF THE XX CENTURY

The role of teachers in educating the younger generation of each state and preparing them for the future life is incomparable. Therefore, the process of professional development of teachers and its importance deserve attention at the state and public levels. Professional development undoubtedly implies that the teacher is well versed in his subjects, that he is mastering new areas of information and pedagogical technologies, and that new strategies are used when working with students. The article paid special attention to the issues and tasks of professional development of school teachers during the years of Soviet power

Keywords: Teacher, advanced training, institute, courses, extension, educational system, seminar, center.

KIRISH. Ta'lim sohasining asosiy maqsadi har bir predmet o'qitilishining yuksak ilmiy saviyasini ta'minlash, fan asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning g'oyaviy, siyosiy, mehnat va ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishlarini uzluksiz yaxshilab borishdir. Ana shu vazifalarni puxta bajarish uchun o'qituvchilar va boshqa xalq maorifi xodimlari o'zlarining nazariy va amaliy tayyorgarlik darajalarini tinimsiz oshirib borishlari kerak. Shu maqsadda maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan juda ko'p sonli o'qituvchi va tarbiyachilar malakasini oshirish uchun malaka oshirish bo'limlari, institutlari tashkil etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Sovet hokimiyat yillarida xalq maorifi tarixi va davrdagi rivoji haqida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Jumladan K.Qodirov, S.Sodiqov, S.Shermammedov, S.Mavlyanova kabi mualliflarning izlanishlarida maktab o'qituvshilari uchun malaka oshirish tizimini tashkil etish haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotga yanada chuqurroq yondashgan holda, ilmiy adabiyotlar, arxiv manbalari va oral tarix materiallari orqali mavzuni yoritishga harakat qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'zbekistonda maorif xodimlarining malaka oshirish instituti bazasida 1939 yilda maktab o'qituvchilarining malaka oshirish instituti tashkil topdi. Bu institut dastlab oliy o'quv yurti maqomiga ega bo'lib, keyinchalik hududlardagi xalq maorifi bo'limlarining uslubiy-metodologik muassasasiga aylantirildi. Viloyat va respublika o'qituvchilar malakasini oshirish institutlarining ko'payganligi, shuningdek kurslarning ta'lim-metodologik planlari yaxshilanganligi pedagogik kadrlar sifatini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Samarqand viloyatida 1945 yilda O'qituvchilar malaka oshirish instituti ochildi. Viloyat o'qituvchilarining malakasini oshirishda yengillik yaratgan bu o'quv yurti tajribasi asosida birin-ketin boshqa viloyatlarda ham shunday institutlar ochila boshladi.

K. Ushinskiy nomidagi Respublika o'qituvchilar malakasini oshirish instituti 1947 yildan faoliyat boshladi. Bu yerda 1947-1948 o'quv yilining o'zida 1859 nafar o'qituvchi, viloyatlardagi malaka oshirish institutlarida esa besh mingga yaqin o'qituvchi malaka oshirdi.

1948 yilda o'qituvchilar malakasini oshirishning yagona tizimi ishlab chiqildi. O'qituvchilar tarkibi tubdan o'rganilib, malaka oshirish kurslari muddatlari va mazmun-mohiyati qaytadan ko'rib chiqildi. Har o'quv yilida maktablarda faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning 20 foizi malaka oshirishi lozimligi qayd qilindi. O'zbekiston Maorif

Ministriligi viloyatlarga malaka oshirish bo‘yicha rejalar jo‘natdi. 1949-1950 o‘quv yilidan boshlab o‘qituvchilar har besh yilda malaka oshirishlari belgilab qo‘yildi. Yetarli ma‘lumotga ega bo‘lmagan o‘qituvchilar sirtqi ta‘lim orqali o‘qishlari majbur qilib belgilandi. Malaka oshirishga boradigan o‘qituvchilarga qulayliklar yaratish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston SSR Moliya Ministrligining 1948 yil 4 maydagi 17-83 sonli aloqa xatiga asosan boshqa shaharlardan qayta tayyorlov va malaka oshirish uchun keladigan o‘qituvchilarga kunlik 100 so‘m miqdorida pul va borish-kelish xarajatlarini qoplab berish topshirildi.[19.19]

Malaka oshirish tizimini tashkil etish qator bosqichlarni qamrab oldi.

O‘qituvchilarning malaka oshirishi ko‘pincha markazlashgan shaklda, ya‘ni respublika va shaharlardagi maxsus pedagogik institutlar va kurslar orqali amalga oshirilgan.[4.59]

1. Pedagogik kurslar va seminarlar orqali amalga oshirilgan malaka oshirish ishlari ko‘pincha davlatning ta‘lim muassasalari, pedagogik institutlar va maktablar o‘rtasidagi hamkorlikda tashkil etilgan. Ularda o‘qituvchilar yangi pedagogik usullar, ta‘lim metodikalari va fanlar bo‘yicha bilimlarni mukammallashtirishga yo‘naltirilgan.

2. Respublika va viloyat markazlaridagi kurslarda doimiy ravishda tashkil etilgan malaka oshirish ishlarida pedagog har besh yilda bir marotaba qatnashar edi. Bunday kurslar tuman markazlaridagi ta‘lim markazlarida ham tashkil etilib, pedagogika, ta‘lim va albatta sotsialistik tarbiyaga oid ma‘lumotlar berilar edi.[6.128]

3. O‘qituvchilarning ish tajribasi orqali malaka oshirish eng ko‘p natija beradigan usul bo‘lib, o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun amaliy tajriba sifatida qo‘llanilgan. Maktablarning o‘zida metod birlashmalari tashkil etilib, ish jarayonida o‘qituvchilar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, o‘quvchilar bilan ishlashda yangi usullar qo‘llash, o‘quv tizimining evolyusiyasini kuzatish hamda maktabning tashkiliy ishlarini bajarishda katta ahamiyatga ega edi.

4. Pedagogik dars va metodikalarni tahlil qilish jarayonida ochiq dars o‘tgan o‘qituvchi yangi o‘rgangan usullarni targ‘ibot qilish, Sovet hokimiyati davrida o‘qituvchilarning malaka oshirilishi jarayonida, ularning dars va metodikalarini baholash ham muhim bo‘lgan. Bu darslar fanning eng yangi usullariga, pedagogika va psixologiya fanlariga asoslangan bo‘lib, ta‘lim tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan edi.[2.103]

Sovet hokimiyatida o‘qituvchilarning malaka oshirilishi faqat ta‘lim sifatini oshirishning bir usuli emas, balki sotsialistik jamiyatning talablariga mos ta‘lim berishning asosiy elementlaridan biri hisoblandi. Ushbu jarayonda o‘qituvchilarga sotsialistik ideologiya, kommunistik tarbiya va davlat siyosatini yosh avlodga yetkazish mas‘uliyati yuklatildi. Malaka oshirish kurslari va seminarlarida o‘qituvchilarga nafaqat pedagogik bilimlar, balki jamiyatning siyosiy-idrokiy vazifalari va sotsialistik ideologiya asoslari ham o‘rgatildi.

Maktablarning boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun o‘zlari yashab turgan tuman va shaharlarda malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Ularga dars berish uchun pedagogika bilim yurtlari o‘qituvchilari va o‘rta maktablarning eng yaxshi o‘qituvchilari jalb qilindi.[5.146]

Ma‘ruzachi o‘qituvchilarning o‘zlari uchun maxsus dastur asosida haftalik va o‘n kunlik seminarlar tashkil etildi.

Yetti yillik maktab o‘qituvchilari shahar, tumanlararo, viloyat miqyosidagi tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida qatnashib, ularga pedagogika institutlari o‘qituvchilari tomonidan ta‘lim berildi.

Markaziy respublika o‘qituvchilarining malaka oshirish institutiga maktab rahbarlari, xalq ta‘limi bo‘limi xodimlari, o‘rta maktab o‘qituvchilari jalb qilinib, ular uchun institutlarning yuqori malakali o‘qituvchilari, ilmiy-tadqiqot institutlarining o‘qituvchilari ma‘ruzalar o‘qidi. Bundan tashqari sirtqi o‘qiyotganlar uchun seminar va qisqa kursli malaka oshirish, mustaqil malaka oshirish kurslari ham mavjud edi.[18.17]

1950-1960 yillar davomida respublikaning barcha hududlaridagi malaka oshirish kurslarida 111,9 ming nafar maktab o‘qituvchilari va rahbarlari qatnashdilar.

Xalq ta‘limidagi o‘quv jarayoniga halaqit bermaslik uchun malaka oshirish ishlari dastlab o‘qituvchilarning yozgi ta‘til davrida tashkillandi. Bu davrda o‘qituvchilar yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik, chiqarilgan yangi dasturlarni o‘zlashtirish va o‘zaro tajriba almashish vazifalarini o‘zlashtirishlari lozim edi. Bu malaka oshirish kurslarining ayrim hududlarda yaxshi tashkillanmaganligi, o‘qituvchilar uchun turar-joylar, dars qilish uchun sharoit yaratilmaganligi, malaka oshirishga muhtoj o‘qituvchilar qolib, oldin malaka oshirgan o‘qituvchilarni qayta-qayta jo‘natilishi eng katta muammolardan biri bo‘lib qoldi.[8.1]

Keyinchalik xalq ta‘limi uslubchilari hududlarga borib, uslubiy jihatdan o‘qituvchilarga yordam bera boshladi. O‘qituvchilarga ish faoliyati davomida uslubiy yordam berishda “O‘qituvchilar gazetasi” va “Sovet maktabi” jurnali katta rol o‘ynadi.

O‘quv yili boshlanishi oldidan o‘qituvchilar yig‘ilib tajriba almashishlari uchun 3 kunlik avgust kengashlari tashkil etildi.[18.15] Bu kengashlarni tashkil etish an‘ana tusiga kirib, bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

XX asrning 70-yillaridan boshlab maktab ta‘limini qayta qurish munosabati bilan o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ishlariga yana ham jiddiy e‘tibor berildi. Pedagogika fanlari instituti va maktablar boshqarmasi bilan birgalikda malaka oshirish institutlari ishlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish va uni tasdiqlab, amalga joriy qilishlari so‘raldi.[20.18] Malaka oshirish institutlarining moddiy-texnik, uslubiy bazalari boyitildi. Qo‘shimcha kutubxonalar tashkil etildi. O‘quv-metodik kabinetlarida ishlagan katta tajribaga ega bo‘lgan uslubchilar tomonidan o‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanmalar tayyorlar edi. Malaka oshirish kurslaridagi o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni ham yaxshilanib bordi. Maktablarning eng yaxshi o‘qituvchilari, oliy o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari, sanoat va qishloq xo‘jalik ilg‘orlari va novatorlari, partiya va sovet organlari xodimlari ma‘ruzalar o‘qish uchun tez-tez jalb qilinadigan bo‘ldi. Malaka oshirish kurslarining tinglovchilari uchun ilg‘or korxonalarga, kolxoz va sovxozlarga ekskursiyalar uyushtirildi.[3.429] Malaka oshirish institutlarida “Qishloq o‘qituvchilari kuni” [7.112-113] tashkil etilgan. Bu tadbir dasturiga politexnik ta‘lim oluvchi namunali qishloq maktablari tajribasini o‘rganish, ochiq darslar

o‘tkazish, ko‘rgazmalar tashkil etish, ilg‘or maktab direktorlarining ish tajribalarini o‘rtoqlashish kabi tadbirlar kiritildi.

Ta‘lim sohasi vakillarining malaka oshirish rejalari tobora oshib bordi. 1959-1960 o‘quv yillarida 60 mingdan ziyod o‘qituvchi, 1960-1965 yillarda xalq maorifi xodimlaridan hammasi bo‘lib, 126 mingdan ko‘proq kishi turli kurs va institutlarda o‘qib malakasini oshirdi.[3.429] Malaka oshirish rejalari oshirib bajarilganda qo‘shimcha pul so‘rash holatlari bo‘lib turgan. Masalan, Toshkent oblast o‘qituvchilarni malaka oshirish institutining ma‘lum qilishicha 1960 yil rejasida ko‘zda tutilgan 1290 kishi o‘rniga 1441 kishi yuborilgan. Bundan tashqari pionerovjatiylar ham 100 kishiga ko‘p kelgan. shu davrda rus tili va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun seminar ham tashkillash ko‘zda tutilgan. Shu sababli ortiqcha bajarilgan ish uchun yana qo‘shimcha 26000 rubl ajratish so‘ralgan. [14.21]

Ammo shu bilan birga malaka oshirish kurslariga o‘qituvchilarni kelishi doim ham rejadagiday ketmagan. Masalan 1960 yil respublika seminariga qatnashish qoniqarsiz holatda bo‘lib, fransuz tili bo‘yicha oktabr va noyabr oylaridagi seminar mashg‘ulotlari tashkil etilmagan. Jami 231 kishi qatnashishi lozim bo‘lgan mazkur seminarda 121 kishi qatnashgan.[17.132]

Chet tillarini o‘qitish bo‘yicha tashkil etilgan seminar davomadi

1-jadval

№	Oblast	Chaqiruv	Qatnashgan
1	Qoraqalpog‘iston respublikasi	19	13
2	Andijon oblast	37	25
3	Samarqand oblast	28	15
4	Farg‘ona oblast	26	14
5	Surxondaryo oblast	34	18
6	Xorazm oblast	24	12
7	Toshkent oblast	38	15
8	Buxoro oblast	25	9
	jami	231	121

Ko‘p millatli oblastlarda malaka oshirish tili ham ayricha bo‘lgan. Masalan Toshkent oblastida o‘zbek va rus tillaridan tashqari qozoq tilida ham malaka oshirish tashkil etilgan. 1966-1967 yilda Toshkent oblast Kalinin rayonida malaka oshiruvchilar lavozimiga ko‘ra ajratilgan va ta‘lim olish tili ham belgilab qo‘yilgan.[15.3]

1966 yil 16 iyulda “Malaka oshirish institutlarining faoliyatini yaxshilash chora-tadbirlari” haqidagi qaror qabul qilindi. Natijada malaka oshirish markazlarining moddiy-texnik bazasi boyitildi. 1967 yilning fevralidan Toshkent Davlat Universiteti qoshida ijtimoiy fanlardan dars beruvchi o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘limi ishga tushdi.[3.444]

Farg‘ona viloyatida 1967 yili 2000 o‘qituvchini malakasini oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, har oyda 167 nafar o‘qituvchi o‘quv kurslariga jalb etilishi lozim edi. Ammo yilning 8 oyi ichida 1145 o‘qituvchi malaka oshirib, oyiga 145 nafardan to‘g‘ri keldi. Qandaydir sabablar bilan qatnasha olmaganlar ham bo‘lgan. Oblast o‘qituvchilarining 560 nafari doimiy seminarlarda qatnashgan. [21.139]

1969-1975 yillarda respublika o‘qituvchilarining malaka oshirish rejasi [9.54]

2-jadval

Oblastlar	1969	1970	1971	1972	1973	1974	1975	1971-75
Qoraqalpog‘iston	2150	2250	4400	2640	2260	1000	930	9800
Andijon	2850	3120	5970	3350	2960	2100	2030	14130
Buxoro	2868	1960	3828	2380	2000	1190	1120	9410
Qashqadaryo	2500	2600	5100	3030	2640	1830	1760	12620
Namangan	1800	1900	3700	2320	1940	1130	1060	9110
Samarqand	3300	3390	6690	3840	3460	2650	2520	16620
Surxondaryo	2100	2190	4290	2610	222	1410	1340	10520
Sirdaryo	2300	2360	4660	2780	2390	1580	1610	11380
Toshkentvil.	3700	3760	7490	4210	3820	2940	2870	18390
Toshkent shahri	2882	2900	5782	3360	2980	2170	2100	14270
Farg‘ona	2800	2900	5700	3320	2950	2100	2030	14070
Xorazm	1000	1120	2120	1530	1150	880	810	6240
Boshqa tashkilotlar	4750	4800	5500	5220	4830	4020	3920	23540
jami	34000	35280	44900	40660	35600	25000	24000	170100

Samarqand oblast o‘qituvchilarini ham malaka oshirishlari bo‘yicha olib borilgan tashkiliy ishlar to‘lig‘icha bajarilmagan. Masalan 1970 yilda Samarqand shahridagi maktab o‘qituvchilaridan 420 nafari malaka oshirishlari lozim bo‘lib, amalda 345 nafari, rayonlardagi 2480 kishi o‘rniga 2362 nafari kurslarda qatnashgan.[12.6]

Qashqadaryo oblasti xalq maorifi bo‘limining 1971 yil 7 iyuldagi 66-A sonli buyrug‘ida yangi o‘quv programmasiga o‘tish munosabati bilan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining avgust oyida malaka oshirishlari haqida buyruq chiqariladi.[24.54] Ularga ikki hafta davomida yangi o‘quv dasturi tushuntirilgan.

Keyingi bosqichda 71-A sonli buyruqqa binoan oblastdagi katta sinf o‘qituvchilarining malaka oshirishlari belgilanadi.[24.467]

Toshkent oblast oblono boshlig‘i Nishonov M.M.ga 1971 yil 23 martdagi № OSU-45 sonli xatda O‘zbekiston SSR Xalq Maorifi ministrligi malaka oshirish markazi boshlig‘i Mirkasimovdan kelgan xatda oblastdagi malaka oshirishga muhtoj boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ro‘yxatini berish so‘raladi.[16.90]

Lenin nomidagi Toshkent Davlat Universitetining fakultetlari, Samarqand Davlat universiteti, Respublika rus tili va adabiyoti pedagogika instituti hamda ijtimoiy fan o‘qituvchilarining malaka oshirish institutlari malaka oshirish rejasini oshirib bajargan. 1973-

1974 yillar mobaynida malaka oshirishning barcha turlariga 105 ming o‘qituvchi jalb etildi. 1975 yilning birinchi yarmida 21 nafar o‘qituvchilar Moskva, Leningrad pedagogika institutlari huzuridagi malaka oshirish institutlarida o‘z mahoratlarini oshirdi.

Jizzax oblastida o‘qituvchilarni malaka oshirish rejasi [11.153]

3-jadval

Raygorono	1976 yil		1981 yil		1982 yil	
	Reja	Bajarilgan	Reja	Bajarilgan	Reja	bajarilgan
Arnasoy rayon	48	32	55	62	56	
Baxmal rayon	318	332	310	317	251	
G‘allaorol rayon	305	322	260	264	266	
Jizzax rayon	280	341	183	207	172	
Do‘stlik rayon	60	43	65	72	63	
Zomin rayon	395	423	185	205	212	
Zarbdor rayon	-	-	-	-	-	-
Mirzacho‘l rayon	112	81	67	74	82	
Oktabr r-n	75	58	65	74	60	
Paxtakor rayon	95	62	69	73	72	
Forish rayon	337	325	240	254	234	
Jizzax shahar	125	86	66	75	138	
Jami	2185	2105	1710	1816	1720	

Ushinskiy nomidagi malaka oshirish institutida 1980 yilda rejadagi 54484 kishini o‘rniga 56981 kishi malaka oshirdi. Toshkent viloyatining malaka oshirish instituti bir yilda 800 kishi malaka oshirdi. Vaholanki viloyatda 25000 kishi ishlardi. Bu yerda 1980 yilda 6000 dan ortiq xalq ta’limi xodimlari va tarbiyachilar malaka oshirdilar. Toshkent shahar malaka oshirish institutida yiliga 130 ta guruhda 4000 mingdan ortiq o‘qituvchilar malaka oshirdilar.[10.101] 1985 yilda respublikadan 370 o‘qituvchilar Rossiyaning 12 ta shahridagi malaka oshirish institutlarida 2 oylik malaka oshirish kurslarida qatnashdilar. 1986 yilda Namanganda vodiylarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va o‘zbek maktablaridagi rus tili o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslari tashkillandi. 5 ta potokda 120 kishidan 2 oylik kurslarda qatnashdilar.

O‘zbekiston Respublikasida 1976 yilga kelib 14 ta malaka oshirish institutlari faoliyat olib bordi. Respublikadagi malaka oshirish institutlari tomonidan uzluksiz ta’limni oshirib borish uchun katta ishlar amalga oshirildi. Pedagogika institutlari o‘qituvchilarni malaka oshirishlari bo‘yicha dasturlar, amaliyot dasturlari ishlab chiqish uchun tinimsiz ish olib borildi. 1986 yilda maktablarda ta’limni olib borish yuzasidan yangi dastur qabul qilindi. Natijada maktabda faoliyat yuritayotgan mutaxassislarni malakasini oshirish talab etildi. Masalan Samarqand oblast maktablarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning yangi dastur asosida 1986-1990 yillarda malaka oshirish rejalari tuzib chiqilgan. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining

miqdorini ikki barobar oshirish, ya'ni 360 tadan 720 taga yetkazish ko'rsatilgan. Yangi dastur asosida maktablarning kuni uzaytirilgan guruh tarbiyachilari va bolalar bog'chalarining tayyorlov guruh tarbiyachilari ham malaka oshirishi ko'zda tutilgan.[13.1] Xuddi shunday maktab rahbariyatini ham muntazam ravishda malakasini oshirib borish rejasi tuzilgan. Qayta qurish yillarida ta'limga kiritilgan o'zgarishlar yuzasidan ularga tushuntirish olib borilgan.[13.4]

Malaka oshirish kurs mashg'ulotlari 144 soatlik qilib belgilandi. Malaka oshirib ketgan o'qituvchilar o'z ish joyiga qaytib borganlaridan keyin ham olgan bilimlarini ish jarayoniga qay darajada joriy qilayotganliklarini nazorat qilish uchun institut uslubchilari vaqti-vaqti bilan nazorat qilib turganlar. Maktablarda bitiruv imtihonlariga tayyorgarlik jarayoni, o'quv-seminarlarini tashkil etish, o'qituvchilarga uslubiy yordam ko'rsatish uchun shahar, tuman xalq ta'limi bo'limlari doimiy ravishda malaka oshirish institutlari xodimlari bilan aloqada bo'lib turgan.[22.8]

Jumladan, Farg'ona shahrida 1989 yilda tajriba sifatida uzluksiz malaka oshirish markazi tashkil etildi. Maorif Ministrligi tomonidan "O'qituvchi" dasturi tasdiqlanib, ishga tushirildi.[7.14]

Malaka oshirish kurslarida ko'rik tanlovlar tashkil etilgan. O'qituvchilar o'zlarining tajribalar va yangi texnologiyalari bilan o'rtoqlashganlar. Farg'ona viloyati o'qituvchilarning malaka oshirish institutida "O'qituvchi-91" ko'rik tanlovida faol qatnashgan, g'olib o'qituvchilarga 1-o'ringa 1000 so'm pul va rangli televizor, 2- o'ringa 500 so'm pul rangli televizor, 3 o'ringa rangli televizor sovg'a qilib berilgan.

Tashkiliy qo'mita va hayot a'zolariga bir oylik mablag' miqdorida rag'batlantirish ajratilgan.[23.16]

Malaka oshirish markazida hatto grek tili o'qituvchilari ham malaka oshirishgan. Maorif ministriligiga O'zbekiston SSR Ministrlar sovetining ishlar boshqarmasi maxsus bo'limi xat bilan murojaat qilgan. Toshkent oblastida grek siyosiy emigrantlarining farzandlari tahsil olayotganligi sababli shu fanni ham malaka oshirish kursiga kiritilishini so'raladi.[17.132]

XULOSA

Sovet hokimiyati davrida o'qituvchilarning malaka oshirilishi mukammal va tizimli ravishda tashkil etilgan, va bu jarayon mamlakatning ta'lim tizimidagi barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Malaka oshirish kursi va seminarlari, pedagogik va metodik bilimlarning oshirilishi, sotsialistik tarbiyaning targ'iboti — barchasi davlat siyosatiga asoslangan va yangi avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo'lgan. Bu tizim o'qituvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash bilan birga, ta'limning umumiy sifatini oshirish va jamiyatning intellektual potensialini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirish tizimi 1948 yildan beri muntazam ishlab kelmoqda. Fanga kiritilgan yangiliklardan xabardor bo'lish, o'zaro tajriba almashtirish maqsadida tashkil qilingan bu kurslar ta'lim sohasida o'ta muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI(REFERENCES)

1. Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Toshkent, 1974. – B-112-113
2. Karimova Z. X. – Sovet hokimiyati yillarida ta’lim tizimi va pedagogik ishlab chiqarish. Toshkent, 2014.
3. Mo‘minov I. O‘zbekiston SSR tarixi 4 tom – Toshkent, 1974. – B-444
4. Sharipova Nargiza Abduqaxharovna. РЕФОРМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ.//CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY VOLUME: 04 ISSUE: 05 | MAY 2023 (ISSN: 2660-6836)
5. Sharipova Nargizakhan Abduqaxxorovna. A look at the history of building schools in Uzbekistan (50-70 years of the 20th century) World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 26, September 2023 ISSN: 2749-361X
6. Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna. XX asrning 40-80 yillarida Farg‘ona vodiysi o‘qituvchilarining jismoniy hordiq chiqarish imkoniyatlari / Educational Research in Universal Sciences ISSN: 2181-3515 VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 16 | 2023
7. Raxmanov N. Razvitie pedagogicheskogo obrazovaniya v Uzbekistane. – Toshkent, 1976. – B-146
8. Xabibullina R. R. – Sovetlar davrida pedagogik faoliyatning shakllanishi: nazariy va amaliyot tadqiqotlari. Moskva, 1990.
9. Kuvvatov N.B. Podgotovka i vospitanie pedagogicheskix kadrov v Uzbekistane: opyt i problemy (1980-1990 gg). Avtoreferat. – Tashkent, 1994. – B-14
10. O‘qituchilar malakasini oshirish muhim vazifa//O‘qituchilar gazetasi. 1955 yil 14 noyabr. № 44, B-1
11. O‘zbekiston Milliy Arxivi,2454-fond, 6-ro‘yxat, 1796-ish, 54-varaq
12. O‘zbekiston Milliy Arxivi. 94-fond, 8-ro‘yxat, 6061-ish, 101-varaq
13. Jizzax viloyat davlat arxivi, 24-fond,1-ro‘yxat, 172-ish, 153-varaq
14. Samarqand viloyat davlat arxivi, 942-fond, 4-ro‘yxat, 797-ish, 6-varaq
15. Samarqand viloyat davlat arxivi, 1589-fond, 2-ro‘yxat, 736-ish,1-varaq

16. Toshkent viloyat davlat arxivi, 530-fond, 1-ro‘yxat, 1230 ish, 21-varaq
17. Toshkent viloyat davlat arxivi, 530-fond, 1-ro‘yxat, 1755-ish, 3-varaq
18. Toshkent viloyat davlat arxivi, 530-fond, 1-ro‘yxat, 1833-ish, 90-varaq
19. Toshkent viloyat davlat arxivi, 870-fond, 1-ro‘yxat, 349-ish, 132-varaq
20. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 716-fond, 1-ro‘yxat, 33-ish, 17-varaq
21. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 716-fond, 2-ro‘yxat, 1-ish, 19-varaq
22. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 1125-fond, 5-ro‘yxat, 101-ish, 18-varaq
23. Farg‘ona viloyat davlat arxivi, 1125-fond, 6-ro‘yxat, 367-ish, 139-varaq
24. Farg‘ona viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti arxivi. Shaxsiy tarkibga oid buyruqlar. 1988-1989 yillar. – B-8
25. Farg‘ona viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti arxivi . Shaxsiy tarkibga oid buyruqlar. 1990-1991 yillar. – B-16
26. Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, 249-fond, 1-ro‘yxat, 543-ish, 19-varaq